



TYUNING UCHUN HUQUQIY ASOSLAR VA
HUJJATLARNI RASMIYLASHTIRISH TARTIBI

Maxmudov Abrorxon Axmadxonovich

t.f.f.d (PhD)

Ne'matov Husniddin Alijon o'g'li

Namangan muhandislik-texnologiya instituti

logistika ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasida avtotyuning qilish qonuniy faoliyat bo'lishi bilan birga, uni amalga oshirishda bir qancha huquqiy talablarga rioya qilish zarur. Tyuning jarayonida e'tibordan chetda qoldirilgan huquqiy jihatlar, kelgusida muammolarga, jarimalarga va hatto avtomobilni ishlatish taqiqiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun, tyuningga kirishishdan avval, barcha huquqiy asoslarni yaxshilab o'rganib chiqish muhimligi keltirilgan.

Kalit so'zlar: Tyuning, yo'l, xavfsizlik, ehtiyot qismlar, tormoz tizimi, osma, rul boshqaruvi, yoritish tizimlari, dvigatel, transmissiya.

Аннотация: В статье отмечается, что хотя автотюнинг в Республике Узбекистан является законной деятельностью, при его осуществлении необходимо соблюдать ряд правовых требований. Юридические аспекты, которые упускаются из виду в процессе тюнинга, могут привести к проблемам в будущем, штрафам и даже запрету на эксплуатацию автомобиля. Поэтому, прежде чем приступить к тюнингу, важно тщательно изучить все правовые основы.



Ключевые слова: тюнинг, дорога, безопасность, запчасти, тормозная система, подвеска, рулевое управление, системы освещения, двигатель, трансмиссия.

Abstract: In the article, it is necessary to comply with a number of legal requirements in its implementation, in addition to being a legal activity in the Republic of Uzbekistan. Legal aspects that are overlooked in the tuning process can lead to further problems, fines and even a ban on the use of the car. Therefore, before entering the tuning, it is important to thoroughly study all the legal grounds.

Key words: tuning, road, safety, spare parts, brake system, suspension, steering, lighting systems, engine, transmission.

Kirish: Tyuning qilishning asosiy huquqiy jihatlar: Avtotyuning o'z avtomobilingizni takomillashtirish va o'z shaxsiyatingizni namoyon qilishning ajoyib usuli bo'lishi mumkin. Biroq, bu faoliyat qonuniy va xavfsiz bo'lishi uchun huquqiy asoslarga rioya qilish muhim. Barcha qonuniy talablarga rioya qilgan holda, siz tyuning qilishdan zavqlanishingiz va kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarning oldini olishingiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasida avtotyuningga oid asosiy huquqiy hujjatlar quyidagilardan iborat bo'lib, O'zbekiston Respublikasining **"Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida"**gi Qonuni, Ushbu qonun yo'l harakati qoidalarini, transport vositalariga qo'yiladigan talablarni va avtotyuningga oid umumiy qoidalarini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **"Transport vositalarini qayta jihozlash va ularni qayta jihozlashning o'ziga xos xususiyatlarini belgilash tartibi to'g'risida"**gi qarori (№ 472, 2018-yil 28-iyun): Ushbu qaror avtomobillarni qayta jihozlash va tyuning qilish tartibini tartibga soladi. O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligining yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha yo'riqnomalari va tartiblari: Ushbu hujjatlar avtomobillarga



o'rnatiladigan qo'shimcha jihozlar, ularning o'lchamlari va texnik xususiyatlariga oid talablarni belgilaydi. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksi: Yo'l harakati qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikni belgilaydi, shu jumladan ruxsatsiz tyuning qilish xam shular jumlasiga kiradi, Davlat standartlari (O'zDSt): Avtomobillarga o'rnatiladigan ehtiyot qismlar va jihozlar xavfsizlik talablariga mos kelishini ta'minlaydi.

Umumiy talablar: Ruxsat olish zarurati: Ba'zi turdagi tyuning ishlari (dvigatelni o'zgartirish, tormoz tizimini o'zgartirish, o'rindiqlarni almashtirish, gaz uskunolari o'rnatish va boshqalar) uchun albatta tegishli davlat organlaridan ruxsat olish kerak. Xavfsizlik talablari: Tyuning ishlari avtomobilning xavfsizlik talablariga javob berishi kerak. Buning ushun qanday yo'l tutish kerak, **birinchidan**, o'rganish: Tyuning qilishdan oldin, O'zbekiston Respublikasining avtotyuningga doir qonunchiligini yaxshilab o'rganib chiqish, **ikkinchidan**, ruxsat olish: Zarur bo'lsa, DYHXX organlaridan tyuningga ruxsat olish, **uchinchidan**, malakali mutaxassislarga murojaat qiling: Tyuning ishlarini faqatgina tajribali va sertifikatlangan mutaxassislarga topshirish, **to'rtinchidan**, sifatli ehtiyot qismlardan foydalaning: tyuningda sertifikatlangan va ishonchli ehtiyot qismlardan foydalanish, **beshtinchidan**, ro'yxatdan o'tkazish: tyuningdan keyin avtomobilning texnik pasportiga o'zgartirishlar kiritilganligiga ishonch hosil qilish kerak.

1. O'zgartirishlar qoidalar: Avtotyuning jarayonida avtomobilning tashqi va ichki ko'rinishini o'zgartirishda qoidalarga rioya qilish kerak. Misol uchun, oynalarni tonirovka qilishda belgilangan me'yorlardan chetga chiqmaslik kerak.

2. Yo'l harakati xavfsizligi: Tyuning ishlari yo'l harakati xavfsizligiga tahdid solmasligi kerak. Avtomobilning texnik xususiyatlari o'zgartirilganda, uning xavfsizligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Tormoz tizimi, osma, rul boshqaruvi va yoritish tizimlariga o'zgartirishlar kiritilganda, ularning ishonchliligi va xavfsizligi tekshirilishi shart.



- 3. Texnik talablar:** Tyuning natijasida avtomobilning texnik ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasida belgilangan standartlar va talablarga mos kelishi kerak. Dvigatel, transmissiya, osma va tormoz tizimlariga o'zgartirishlar kiritishda, ularning sertifikatlariga va texnik parametrlariga e'tibor berish lozim.
- 4. Ro'yxatdan o'tkazish:** Tyuningdan so'ng avtomobilning texnik pasportiga kiritilgan barcha o'zgartirishlar Davlat Yo'l Harakati Xavfsizligi Xizmati (DYHXX) organlarida ro'yxatdan o'tkazilishi shart. Ro'yxatdan o'tkazilmagan o'zgartirishlar, avtomobilni ishlatish taqiqiga olib kelishi mumkin. Ro'yxatdan o'tkazish jarayonida, tyuning ishlari amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilishi kerak.
- 5. Ruksat olish:** Ba'zi tyuning turlari, masalan, dvigatelni almashtirish, tormoz tizimiga jiddiy o'zgartirishlar kiritish kabi holatlarda DYHXX organlaridan maxsus ruksat olish talab etilishi mumkin. Ruksatsiz amalga oshirilgan tyuning ishlari, qonunbuzarlik sifatida baholanishi mumkin.
- 6. Sertifikatlash:** Tyuningda foydalaniladigan ehtiyot qismlar va materiallar, O'zbekistonda amalda bo'lgan sertifikatlariga ega bo'lishi shart. Sertifikatsiz mahsulotlardan foydalanish, avtomobilning ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatishi va xavfsizlikni yomonlashtirishi mumkin.
- 7. Ma'muriy javobgarlik:** Ruksatsiz yoki standartlarga javob bermaydigan tyuning uchun ma'muriy javobgarlik (jarima va hokazo) ko'zda tutilgan.

Hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi:

Avtotyuning qilishda quyidagi hujjatlarni rasmiylashtirish kerak bo'lishi mumkin:

- **Avtomobilning texnik pasporti:** Avtomobilning identifikatsion ma'lumotlari, dvigatel raqami va boshqa ma'lumotlar yozilgan hujjat.
- **Qayta jihozlashga ruksatnoma:** Ba'zi turdagi tyuning ishlari uchun (dvigatel, tormoz tizimi va boshqalar) ruksatnoma olish kerak. Ruksatnoma transport vositalarini qayta jihozlash bo'yicha vakolatli organdan olinadi.



- **Sertifikatlar:** O'rnatiladigan ehtiyot qismlar va jihozlar uchun sertifikatlar (standartlarga mosligi to'g'risidagi hujjat).
- **O'zgartirishlar to'g'risidagi dalolatnoma:** Avtotyuning ishlari tugagandan so'ng, vakolatli organning o'zgartirishlar to'g'risidagi dalolatnomasi olinadi.
- **Texnik ko'rikdan o'tish to'g'risidagi dalolatnoma:** O'zgartirishlardan keyin avtomobil texnik ko'rikdan o'tishi va bu haqda dalolatnoma olishi kerak.
- **Ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi guvohnoma:** O'zgartirishlar avtomobilning texnik pasportiga kiritilishi kerak va bu jarayon ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi guvohnoma orqali tasdiqlanadi.

Hujjatlarni yuritish tartibi:

Birinchidan: Rejalashtirish, Tyuning loyihasini ishlab chiqish va qanday o'zgartirishlar amalga oshirilishini aniqlash, har doim avtotyuning qoidalarini o'rganish va ularga rioya qilish.

Ikkinchidan: Ruxsatnoma olish, Zarur bo'lsa, avtotyuningga oid ruxsatnoma olish uchun tegishli organlarga murojaat qilish.

Uchinchidan: Sertifikatlangan qismlar, Sertifikatlangan ehtiyot qismlar va jihozlarni sotib olish, sifatli ehtiyot qismlardan foydalanish.

To'rtinchidan: Tyuning ishlari, Tyuning ishlarini malakali mutaxassislar yordamida o'tkazish, murakkab tyuning ishlarini professional ustaxonaga topshirish.

Beshinchidan: Tekshiruv, O'zgartirishlar tugagandan so'ng, vakolatli organ tomonidan texnik tekshiruv o'tkazish va dalolatnoma olish, o'zgarishlarni yozib borish va barcha hujjatlarni rasmiylashtirish.

Oltinchidan: Texnik ko'rik, Avtomobilni texnik ko'rikdan o'tkazish.

Yettinchidan: Ro'yxatdan o'tkazish, Avtomobilning texnik pasportiga o'zgartirishlarni kiritish va ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida guvohnoma olish.



Sakkizinchidan: Hujjatlarni saqlash, Barcha tegishli hujjatlarni saqlash va zarur bo'lganda taqdim etish.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda avtotyuning bu avtomobilni yaxshilash, shaxsiy uslubni namoyon qilish va haydash tajribasini boyitish uchun qiziqarli va ijodiy jarayon. Biroq, bu jarayonda ehtiyotkorlik va professional yondashuv talab etiladi. Avtotyuningni rejalashtirishda barcha jihatlarni e'tiborga olish va maqsadga muvofiq tarzda harakat qilish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси меҳнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш вазирининг 2013 йил 24 апрелдаги 23-Б сон буйруғи билан тасдиқланган “Лок-бўёқ материаллари билан ишлашда меҳнатни муҳофаза қилиш” қоидалари. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2013 й, 19-сон, 246-модда
2. Matkarimov K.J., Mahmudov B.J., Norqulov A.A. Avtomobillarda ishlatiladigan ashyolar. Toshkent, “Talqin” nashryoti -2012 – 304 b
3. Matkarimov K.J., Mahmudov B.J., Norqulov A.A. Avtomobillarda ishlatiladigan ashyolar. Toshkent, “Noshir” nashryoti -2017 – 388 b
4. Nurmurodov S.D., Rasulov A.X., Baxadirov K.G. Materialshunoslik va konstruksion materiallar texnologiyasi. -T.: «Fan va texnologiya», 2015,240 bet.
5. Richard Folkson, Alternative Fuels and Advanced Vehicle Technologies for Improved Environmental Performance. Woodhead Publishing Limited, 2015.